



**O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki**

Biznes kayfiyati sharhi

2026-yil II chorak



Biznes kayfiyati sharhi – O‘zbekiston Respublikasi hududlaridagi iqtisodiy faollik, tadbirkorlik muhiti va bandlik bilan bog‘liq tendensiyalarni muqobil ko‘rsatkichlar orqali o‘zida ifoda etadi.



Ushbu sharh 2026-yilning II choragida mamlakatda shakllangan biznes kayfiyatini o‘rganish maqsadida 2026-yilning iyul oyida hududlarda o‘tkazilgan so‘rov natijalari asosida tayyorlandi. So‘rovda mamlakatning barcha hududlari to‘liq qamrab olingan bo‘lib, iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yurituvchi ikki mingdan ortiq tadbirkorlar ijtimoiy tarmoqlar orqali ishtirok etdi. Bunda tadbirkorlik faoliyati yo‘nalishlarini kengroq qamrab olish va reprezentativlikni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratildi.

So‘rovnoma hududlardagi iqtisodiy faollik, tadbirkorlik muhitiga ta’sir qiluvchi omillar, energiya iste’moli hajmi o‘zgarishi, yuk tashish ko‘rsatkichlari, sohalarda ishchi kuchiga bo‘lgan talab, bandlik darajasi, savdo hajmi hamda soha istiqboli bo‘yicha joriy holat va kutilmalarni aniqlashga qaratilgan savollardan tashkil topgan.

Har bir savol uchun bir nechta javob variantlari taqdim etilgan bo‘lib, ishtirokchilar bir vaqtning o‘zida ulardan bir yoki bir nechtasini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Natijalar har bir javob variantini tanlagan respondentlar sonini umumiy javoblar soniga nisbatan hisoblash hamda alohida guruhlar bo‘yicha vaznli koeffitsiyentlarni qo‘llash orqali umumlashtirildi. Umumlashtirilgan ma’lumotlar taqsimot qoidalari asosida tahlil qilinib, o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan taqqoslandi.

Tahlillar mamlakatning turli hududlaridagi iqtisodiy sharoitlarni qiyosiy baholash va ulardagi o‘zgarish tendensiyalarini sifat jihatidan o‘rganish imkonini beradi.

Umumiy xulosalar

Tadbirkorlik muhiti

2026-yilning II choragi yakunlari bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini o'rganish natijalari respublikada biznes yuritish muhitida ijobiy tendensiyalar davom etayotganini ko'rsatmoqda. So'rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlarning* 64 foizi biznes sharoitlari nisbatan yaxshilanganini (*o'tgan yilning mos davrida 61 foiz*) ta'kidlagan. Mazkur ko'rsatkich so'nggi ikki yil davomida o'rtacha 50 foizdan yuqori darajada saqlanib kelmoqda va bu tadbirkorlar ishonchining barqarorligidan dalolat beradi.

Respondentlar biznes muhitidagi ijobiy o'zgarishlarni, avvalo, bank xizmatlari sifati va raqobat muhiti yaxshilanganini, litsenziya olish jarayonlari soddalashgani hamda yo'llar infratuzilmasi biroz yaxshilanganini bilan izohlashgan. Shu bilan birga, monopollashuv darajasi, ma'muriy aralashuvlar, energiya ta'minoti va bojxona tariflari bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagani qayd etilgan.

Iqtisodiy faollik

Mazkur chorakda yonilg'i sarfi va yuk tashish hajmlari, ishlab chiqarish hamda buyurtma hajmlari oshganini ta'kidlagan tadbirkorlar ulushi yuqori saqlanib qoldi. Xususan, buyurtmalar ko'payganini bildirganlar ulushi 56 foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlarida nisbatan yuqori darajada qayd etildi. Mazkur ijobiy dinamikaga qurilish, turizm, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik hamda ishlab chiqarish tarmoqlari asosiy hissa qo'shdi.

Nisbatan yuqori quvvatlarda faoliyat olib borayotgan korxonalar ulushi o'tgan yilning mos davridagi 50 foizdan 58 foizgacha oshdi. Bunda, Farg'ona, Namangan, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi yuqori quvvatlarda faoliyat yuritayotgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida ushbu ko'rsatkich nisbatan pastroq shakllandi. Tadbirkorlar tomonidan energiya ta'minotidagi uzilishlar, ichki talabning yetarli emasligi, avtomobillar uchun yoqilg'i narxlarining qimmatlashishi hamda yetkazib berishdagi uzilishlar to'liq quvvatda faoliyat yuritmaslikning asosiy sabablari sifatida qayd etildi.

* So'rovda jami 2 391 nafar tadbirkor ishtirok etdi.

Bandlik

2026-yilning II choragi davomida mehnat bozorida faollik barqaror darajada saqlanib, aksariyat korxonalarda qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab ortgani qayd etildi. Jumladan, II chorakda ishchi kuchiga talabi oshganini bildirgan tadbirkorlik subyektlari ulushi 48 foizga yetdi.

Kelgusi choraklarda Xorazm, Samarqand, Jizzax hamda Sirdaryo viloyatlarida qo'shimcha ishchi kuchiga talabning yuqori darajada ortishi va bu ko'rsatkich ishlab chiqarish, qurilish, turizm hamda moliya sohalarida boshqa sohalariga nisbatan yuqori shakllanishi kutilmoqda.

Moliyaviy holat

Tadbirkorlar orasida so'nggi uch oy davomida qarz majburiyatlari oshganini bildirgan tadbirkorlar ulushi 42 foizni tashkil etdi. Shuningdek, qo'shimcha kreditlarga bo'lgan talab borasidagi kutilmalarda o'suvchi tendensiyalar saqlanib qolmoqda (*respondentlarning 45 foizi kelgusida qarz majburiyatlari oshishini kutishmoqda*).

Navoiy, Qashqadaryo, Andijon va Jizzax viloyatlarida kelgusi chorakda kredit resurslariga ehtiyoj sezilarli oshishi kutilayotgan bo'lsa, Farg'ona, Toshkent hamda Buxoro viloyatlarida ehtiyoj pasayishi yoki o'zgarishsiz qolishi kutilmoqda. Bunda, qurilish, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, turizm va umumiy ovqatlanish sohalarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan kelgusida kredit mablag'lariga nisbatan yuqori ehtiyoj mavjudligi bildirildi.

Istiqbollar

O'rta muddatli istiqbolda tadbirkorlarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga bo'lgan ishonchi ijobiy saqlanib qolmoqda. 2025-yilning dastlabki choragidan buyon ijobiylik darajasi sezilarli yaxshilanib, 2026-yilning II choragida so'rovda ishtirok etgan biznes subyektlarining 82 foizi (*2025-yil II chorakda 66 foiz*) kelgusi davrda makroiqtisodiy sharoitlar yaxshilanishiga ishonch bildirgan.



Toshkent shahri va Toshkent viloyati

2026-yilning II choragida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida respondentlarning 53 foizi biznes shart-sharoitlari yaxshilanganligini qayd etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan biroz oshdi. Qurilish, tashish, ishlab chiqarish va savdo sohalarida biznes muhiti sezilarli yaxshilangan.

So'rovlarda ishtirok etgan tadbirkorlar tomonidan bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti hamda litsenziya olish yo'nalishlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilganligi ta'kidlandi. Bu omillar biznes yuritish sharoitlarini baholashda nisbatan muhim qo'llab-quvvatlovchi omillar sifatida qayd etildi.


Shu bilan birga, soliq ma'murchiligi, yo'llar infratuzilmasi, gaz va elektr ta'minoti hamda monopollashuv darajasi bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilmaganligi bildirildi. Mazkur yo'nalishlarda tadbirkorlarning baholari nisbatan pastroq shakllanganligi qayd etildi.

Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari bo'yicha buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmlari oshganligini bildirganlar ulushi o'tgan yilning II choragiga nisbatan mos ravishda 4 va 7 foiz bandga ko'paydi. Buyurtmalar hajmi asosan qurilish, turizm, hunarmandchilik va savdo tarmoqlarida ko'paydi.


Mehnat bozorida ham faollik saqlanib qoldi. Qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshganligini bildirgan tadbirkorlar ulushi o'tgan yilga nisbatan biroz yuqoriladi. Buyurtmalar hajmi oshganligi bildirilgan sohalarda qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab ham yuqori shakllangan.

Kredit to'lovlari oshganligini bildirgan respondentlar ulushi o'tgan yil darajasida o'zgarishsiz qoldi. Shunga qaramay, qurilish, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi va moliya sohalarida qo'shimcha kredit resurslariga talab yuqori darajada saqlanib qoldi.


1-rasm. Sohalarda kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



2-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



3-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Toshkent shahri va Toshkent viloyati

2026-yilning II choragida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish sezilarli oshdi. Yuqori quvvatda ishlagan korxonalar ulushi o'tgan yilning mos davridagi 43 foizdan 61 foizga yetdi. Tibbiyot, tashish hamda aloqa va axborot tarmoqlaridagi korxonalarning aksariyat qismi yuqori quvvatlarda faoliyat yuritmoqda.


To'liq quvvatda ishlay olmaslik holatlari saqlanib qolgan korxonalar asosiy cheklovlar sifatida gaz va elektr ta'minotidagi uzilishlar, talabning yetarli emasligi, avto-yonilg'i narxi o'sishi hamda logistikadagi uzilishlarni qayd etishgan. Ushbu omillar ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini cheklagan muhim sabablar sifatida baholandi.

Kelgusi chorakda buyurtmalar, ishlab chiqarish hajmi hamda qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshishi bo'yicha kutilmalar biroz yaxshilandi. Respondentlarning 51 foizi kelgusida buyurtmalar hajmi oshishini kutmoqda. Ushbu o'sish asosan qurilish, ishlab chiqarish, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi sohaslarida bo'lishi kutilmoqda.


Mehnat bozorida ham faollik saqlanib qolishi ta'kidlandi. Ushbu holat korxonalarning kelgusi davrda faoliyat hajmini kengaytirish, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun mehnat resurslariga ehtiyoji ortayotganligini ko'rsatadi.

Kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch sezilarli oshdi. So'rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlarning 82 foizida ijobiy kutilmalar shakllangan bo'lib, bu holat hududdagi biznes vakillarining o'rta muddatli istiqbollarga nisbatan ishonchi mustahkamlanganligini ifodalaydi.


4-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlar ulushi, foizda



5-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



6-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari

2026-yilning II choragida Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida respondentlarning 69 foizi biznes shart-sharoitlari yaxshilanganini qayd etdi. Ushbu ko'rsatkich 2025-yil II choragiga nisbatan 8 foiz bandga oshdi. Xususan, umumiy ovqatlanish, turizm, moliya va qishloq xo'jaligi sohalarida biznes muhiti yaxshilanganligini ta'kidlaganlar ulushi sezilarli darajada ko'paygan.

Tadbirkorlar tomonidan ijobiy o'zgarishlar, avvalo, bank xizmatlari sifati va kredit olish imkoniyatlarida kuzatilganligi ta'kidlandi. Shuningdek, litsenziya olish hamda raqobat muhiti bo'yicha shart-sharoitlar yaxshilanganligi qayd etildi.

Shu bilan birga, ma'muriy aralashuvlar, gaz va elektr ta'minoti, bojxona tariflari hamda monopollashuv darajasi bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilmaganligi bildirildi.


Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Ayniqsa, yonilg'i va energiya iste'moli oshganini bildirgan subyektlar ulushi o'tgan yilga nisbatan 7 foiz bandga ko'paydi. Bunda, qurilish, tibbiyot, savdo va qishloq xo'jaligi sohalarida energiya iste'molining sezilarli darajada ko'payishi qayd etildi.

Buyurtmalar hajmi ko'payganini bildirgan respondentlar ulushi ham o'tgan yilga nisbatan 11 foiz bandga yuqorilab 64 foizni tashkil etdi. Tibbiyot, turizm, moliya va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning asosiy qismi buyurtmalar oshganligini qayd etishdi.


Yuklarni tashish hajmi bo'yicha ham ijobiy dinamika qayd etilib, ushbu ko'rsatkich oshganligini ta'kidlagan biznes subyektlari ulushi 9 foiz bandga ko'paydi. Ushbu faollik, asosan, buyurtma hajmi va yonilg'i iste'moli oshgan sohalarida kuzatildi.

Kredit to'lovlari oshganini qayd etgan tadbirkorlar ulushi 5 foiz bandga pasaydi. Bu holat moliyaviy majburiyatlar yukining nisbatan yumshaganligini yoki qarz to'lovlari bo'yicha bosim kuchaymaganligini ko'rsatdi.


7-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



8-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



9-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari

2026-yilning II choragida Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi barqaror saqlandi. Yuqori quvvatda ishlagan korxonalar ulushi 54 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos choragiga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qoldi.

To'liq quvvatda ishlay olmagan tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga gaz va elektrdan uzilishlar, talabning yetarli emasligi, aylanma mablag'ning kamligi hamda yetkazib berishdagi uzilishlar asosiy cheklovchi omillar sifatida ta'sir qilganligi qayd etildi.


Kelgusi chorakda barcha iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari bo'yicha kutilmalar yaxshilandi. Xususan, buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmi ortishini bildirganlar ulushi 60 foiz atrofida shakllanib, o'tgan yilga nisbatan qariyb 5 foiz bandga yuqori bo'ldi. Tibbiyot, savdo, moliya va qurilish sohalarida buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmlari sezilarli oshishi kutilmoqda.

Qo'shimcha ishchi kuchiga talab bo'yicha kutilmalar ham ijobiy tomonga o'zgardi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, hududdagi korxonalar kelgusi davrda faoliyat hajmining kengayishi va buyurtmalar faollashuvi fonida mehnat resurslariga ehtiyoji ortishini alohida ta'kidladilar. Ayniqsa, moliya, tibbiyot, ta'lim va turizm tarmoqlarida qo'shimcha ishchi kuchiga talab yuqori bo'lishi mumkin.


Kredit resurslariga ehtiyojning kamayishi bo'yicha kutilmalar biroz ko'paydi. Bu holat ayrim biznes subyektlarida mavjud majburiyatlarni ehtiyotkorlik bilan boshqarish, qarz yukini oshirmaslikka intilish va ichki mablag'lar hisobidan faoliyatni davom ettirishga moyillik kuchayganligi bilan izohlanadi.

Kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirgan tadbirkorlar ulushi 84 foizni tashkil etdi va o'tgan yilning II choragiga nisbatan sezilarli yaxshilandi.


10-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlar ulushi, foizda



11-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



12-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari

2026-yilning II choragida Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida respondentlarning 66 foizi biznes shart-sharoitlari yaxshilanganini bildirdi. Ushbu ko'rsatkich 2025-yilning II choragiga nisbatan 4 foiz bandga pasaydi. Xususan, hunarmandchilik, ta'lim va moliya sohalarida biznes muhiti yaxshilanganligini ta'kidlaganlar ulushi sezilarli darajada kamaydi.

Shunga qaramay, so'rovlarda ishtirok etgan biznes subyektlari bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti hamda litsenziya olish yo'nalishlaridagi holatni ijobiy baholadilar.


Tadbirkorlar tomonidan bojxona tariflari, ma'muriy aralashuvlar, gaz va elektr ta'minoti hamda monopollashuv darajasi bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilmaganligi qayd etildi.

Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarida ham o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda sezilarli pasayishlar kuzatildi. Xususan, buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmlari oshganini bildirgan tadbirkorlar ulushi o'tgan yilga nisbatan biroz kamaydi. Bunda, tibbiyot, ta'lim, qishloq xo'jaligi va moliya sohalarida vakillarining asosiy qismi buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmlari o'zgarmaganligini bildirishdi.


Qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshganini bildirgan tadbirkorlar ulushi ham 14 foiz bandga pasaydi. Bu mehnat bozoridagi ehtiyojlar nisbatan pastroq shakllanganini hamda ishlab chiqarish kengayishi sust bo'lgan sohalarida yangi ishchi kuchiga talab pasayganini ko'rsatdi.

Kredit to'lovlari oshganini qayd etgan respondentlar ulushi ham 6 foiz bandga kamaydi. Bu ko'rsatkich ham biznes subyektlarining faoliyat ko'lamini kengaytirmaganliklarini va mavjud resurslardan foydalanishda davom etayotganliklarini anglatishi mumkin.


13-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



14-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



15-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari

Shunga qaramay, 2026-yilning II choragida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish bo'yicha faollik sezilarli oshdi. Yuqori quvvatda ishlagan korxonalar ulushi 57 foizdan 70 foizga oshgani qayd etildi. Bu holat Farg'ona vodiysi hududlarida mavjud quvvatlardan foydalanish darajasi o'tgan yilga nisbatan ancha yaxshilanganini ko'rsatdi. Moliya, qurilish, tashish, ta'lim va tibbiyot sohalaridagi yuqori quvvatda faoliyat yurituvchi subyektlar ulushi sezilarli ko'paygan.

To'liq quvvatda ishlay olmaslik holatlari, asosan, talabning yetarli emasligi, gaz va elektr hamda logistikadagi uzilishlar va aylanma mablag'ning kamligi bilan izohlandi. Ushbu omillar korxonalar faoliyatida ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq yo'lga qo'yishga to'sqinlik qilgani ta'kidlandi.


Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalarda buyurtmalar hajmi oshishini kutayotgan tadbirkorlar ulushi avvalgi yilga nisbatan pasaydi. Mazkur ko'rsatkich 54 foizni tashkil etib, 14 foiz bandga past shakllandi. Aloqa va axborot, ta'lim, moliya va hunarmandchilik sohasi vakillarining asosiy qismi kelgusida buyurtmalar hajmi o'zgarmasligini kutmoqda.

Qo'shimcha ishchi kuchiga talab bo'yicha kutilmalar ham pasaygani kuzatildi. Buyurtmalar hajmi o'zgarishsiz qolishi kutilayotgan tarmoqlarda qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab ham pastroq shakllanishi respondentlar tomonidan bildirildi.


Kredit resurslariga qo'shimcha ehtiyoj bo'yicha kutilmalar ham pasaydi. Kredit to'lovlari bilan bog'liq baholarda pasayish qayd etilgani biznes subyektlarining moliyaviy majburiyatlar va tashqi moliyalashtirishga ehtiyoji yuzasidan nisbatan ehtiyotkor pozitsiyada qolganini ifodalashi mumkin.

Shu bilan birga, kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirgan tadbirkorlar ulushi 81 foizni tashkil etdi.


16-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



17-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



18-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari

2026-yilning II choragida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida respondentlarning 61 foizi biznes shart-sharoitlari yaxshilanganini qayd etdi. Turizm, moliya, qishloq xo'jaligi va ta'lim sohalarida biznes muhiti yaxshilanganligini bildirgan respondentlar ulushi sezilarli ko'paygan.

So'rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlar tomonidan kredit olish imkoniyatlari, bank xizmatlari sifati, raqobat muhiti hamda litsenziya olish jarayonlari yaxshilanganligi qayd etildi.

Shu bilan birga, soliq ma'murchiligi, ma'muriy aralashuvlar, monopollashuv darajasi va bojxona tariflari bo'yicha sezilarli o'zgarish kuzatilmaganligi ta'kidlandi. Ushbu yo'nalishlar tadbirkorlar bahosida biznes muhitiga ta'sir etuvchi barqaror, biroq sezilarli yaxshilanishlar qayd etilmagan omillar sifatida shakllandi.


Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlaridan yonilg'i va energiya iste'moli oshganini ta'kidlagan respondentlar ulushi biroz ko'paydi. Bunda, energiya sarfining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari asosan maishiy xizmat, umumiy ovqatlanish hamda tibbiyot tarmoqlari hissasiga to'g'ri keldi.

Tadbirkorlik subyektlarining deyarli yarmi ishlab chiqarish va buyurtmalar hajmi oshganini qayd etishdi. Bunda, asosan, moliya, qurilish, tibbiyot, umumiy ovqatlanish va turizm tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmlari ko'payganligi ta'kidlandi.


Mehnat bozorida faollik o'tgan yil darajasida saqlanib qoldi. Qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab ishlab chiqarish hajmlari oshgan tarmoqlarda nisbatan yuqori shakllandi.

Kredit resurslariga talab esa nisbatan barqarorlashgan bo'lib, maishiy xizmat, savdo va qishloq xo'jaligi sohalarida qo'shimcha kredit resurslariga ehtiyoj sezilmaganligi qayd etildi.


19-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



20-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



21-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari

2026-yilning II choragida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish faollashganligi qayd etildi. Yuqori quvvatda ishlagan korxonalar ulushi 48 foizdan 58 foizga oshib, o'tgan yilga nisbatan 10 foiz bandga yuqori shakllandi. Ta'lim, hunarmandchilik, umumiy ovqatlanish va qurilish sohasi vakillarining aksariyat qismi yuqori quvvatda faoliyatlarini davom ettirishmoqda.


To'liq quvvatda ishlay olmaslik sabablari sifatida tadbirkorlar gaz va elektr ta'minotidagi uzilishlar, talabning yetarli emasligi, logistikadagi mummolar hamda aylanma mablag'ning kamligini ko'rsatdilar. Ushbu omillar faoliyat hajmini kengaytirish imkoniyatlarini cheklagan asosiy holatlar sifatida baholandi.

Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar deyarli o'tgan yil darajasida saqlanib qoldi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, yonilg'i va energiya iste'moli bo'yicha ijobiy kutilmalar 59 foizni, buyurtmalar hajmi bo'yicha esa 52 foizni tashkil etdi. Ta'lim, qurilish hamda aloqa va axborot sohalarda energiya iste'moli bilan birgalikda buyurtmalar hajmi sezilarli oshishi kutilmoqda.


Qo'shimcha ishchi kuchiga talab bo'yicha kutilmalar biroz pasaygan bo'lsa-da, ijobiy qolmoqda. Ishchi kuchiga talab ham asosan yuqorida qayd etilgan sohalarda ko'payishi bildirildi.

Kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirgan tadbirkorlar ulushi 84 foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli yaxshilandi va biznes vakillarining o'rta muddatli istiqbolga nisbatan ishonchi mustahkamlanganligini ko'rsatdi.


22-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



23-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



24-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Jizzax va Sirdaryo viloyatlari

2026-yilning II choragida Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida respondentlarning 66 foizi biznes shart-sharoitlari yaxshilanganligini qayd etishdi. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning II choragiga nisbatan 4 foiz bandga oshdi. Xususan, hunarmandchilik, aloqa va axborot, turizm sohalarida biznes muhiti yaxshilanganligini ta'kidlaganlar ulushi sezilarli darajada ko'paygan.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, hududlarda ijobiy o'zgarishlar asosan bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti va yo'llar infratuzilmasi bilan bog'liq omillarda kuzatilganligi ta'kidlandi. Bu omillar tadbirkorlik faoliyatini yuritishdagi sharoitlar nisbatan qulaylashganligini ko'rsatadi.


Shu bilan birga, tadbirkorlar tomonidan soliq ma'murchiligi, gaz va elektr ta'minoti, ma'muriy aralashuvlar hamda monopollashuv darajasi bo'yicha sezilarli o'zgarish kuzatilmaganligi qayd etildi.

Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarida ham ijobiy dinamika kuzatildi. Buyurtmalar hajmi, yonilg'i va energiya iste'moli hamda ishlab chiqarish hajmlari oshganligini bildirgan respondentlar ulushi 7-8 foiz bandga yuqori shakllandi.


Buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmi asosan qurilish, turizm, moliya hamda savdo sohalarida oshganligi respondentlar tomonidan bildirildi. Yonilg'i va energiya iste'moli oshganligini bildirgan tadbirkorlik subyektlarining ulushi esa savdo, qishloq xo'jaligi, tibbiyot va umumiy ovqatlanish tarmoqlarida nisbatan yuqori bo'ldi.

Qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshganligini bildirgan respondentlar ulushi ham o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 11 foiz bandga ko'payib, 56 foizga yetdi. Qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab, ayniqsa, ta'lim, turizm va umumiy ovqatlanish sohalarida yuqori shakllandi.


25-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



26-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



27-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Jizzax va Sirdaryo viloyatlari

2026-yilning II choragida Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida ishlab chiqarish quvvatlaridan yuqori darajada foydalangan korxonalar ulushi 49 foizni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan deyarli o'zgarishsiz saqlanib qoldi. Shunday bo'lsa-da, moliya, turizm, umumiy ovqatlanish, tibbiyot va qurilish sohasi vakillarining aksariyat qismi yuqori quvvatda faoliyat yuritishgan.

To'liq quvvatda ishlay olmagan tadbirkorlik subyektlari asosiy cheklovlar sifatida gaz va elektr ta'minotidagi uzilishlar, talabning yetarli emasligi, logistikadagi muammolar hamda avto-yonilg'i narxi qimmatlashganligini qayd etdilar. Ushbu omillarning ishlab chiqarish jarayonlari barqarorligiga va xizmat ko'rsatish uzluksizligiga ta'sir ko'rsatganligi ta'kidlandi.


Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalarda buyurtmalar hajmi bilan bir qatorda ishlab chiqarish hajmlari, yonilg'i va energiya iste'moli hamda yuklarni tashish hajmi oshishini kutayotgan respondentlar ulushi o'tgan yilga nisbatan biroz ko'paydi.

Ishlab chiqarish va buyurtmalar hajmi moliya, qurilish, turizm hamda qishloq xo'jaligi tarmoqlarida yuqori oshishi kutilmoqda.


Qo'shimcha ishchi kuchiga talab bo'yicha kutilmalar ham ijobiy qolmoqda. Korxonalar faoliyatining kengayishi, buyurtmalar ko'payishi va ishlab chiqarish hajmining ortishi sharoitida mehnat resurslariga ehtiyoj ortishi mumkinligini bildirdilar. Xususan, qurilish, umumiy ovqatlanish va turizm sohalarida kelgusida qo'shimcha ishchi kuchiga talab yuqori shakllanishi kutilmoqda.

Kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirgan tadbirkorlar ulushi 80 foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 16 foiz bandga oshib, o'rta muddatli istiqbolda ijobiy kutilmalar shakllanganligini ko'rsatdi.


28-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



29-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



30-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Qoraqalpog'iston Res. va Xorazm viloyati

2026-yilning II choragida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida respondentlarning 65 foizi biznes shart-sharoitlari yaxshilanganligini qayd etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning II choragiga nisbatan 9 foiz bandga oshdi. Xususan, qurilish, tibbiyot, moliya va qishloq xo'jaligi sohalarida biznes muhiti yaxshilanganligini bildirganlar ulushi sezilarli darajada ko'paydi.

So'rovnomada qatnashgan tadbirkorlar tomonidan bank xizmatlari sifati va kredit olish imkoniyatlari yaxshilanganligi ta'kidlandi. Shuningdek, raqobat muhiti hamda litsenziya olish bo'yicha ijobiy o'zgarishlar kuzatilganligi qayd etildi.


Shu bilan birga, ma'muriy aralashuvlar, soliq ma'murchiligi, bojxona tariflari va monopollashuv darajasi bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilmaganligi bildirildi.

Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlaridan yonilg'i va energiya iste'moli, buyurtmalar hajmi hamda ishlab chiqarish hajmlari oshganini bildirgan respondentlar ulushi o'tgan yilga nisbatan mos ravishda 6, 4 va 7 foiz bandga yuqori shakllandi.


Buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmlari, asosan, qurilish, umumiy ovqatlanish hamda tashish xizmati sohalarida oshdi.

Mehnat bozorida ham faollik saqlanib qoldi. Qo'shimcha ishchi kuchiga talab qurilish, tashish xizmati va moliya tarmoqlarida nisbatan yuqori shakllandi.


31-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



32-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



33-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Qoraqalpog'iston Res. va Xorazm viloyati

2026-yilning II choragida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish deyarli o'zgarishsiz saqlanib qoldi. Yuqori quvvatda ishlagan korxonalar ulushi 48 foizni tashkil etib, umumiy ovqatlanish, tibbiyot va qurilish sohasidagi korxonalar nisbatan yuqori quvvatlarda faoliyatini davom ettirishgan.

To'liq quvvatda ishlay olmayotgan tadbirkorlik subyektlari asosiy cheklovlar sifatida gaz va elektr ta'minotidagi hamda logistikadagi uzilishlar, aylanma mablag'ning kamligi va avto-yonilg'i narxi qimmatlashishini qayd etdilar.

Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalarda barcha iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarish kuzatildi.


Xususan, buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmi o'rinishini kutayotganlar ulushi 56 foiz atrofida shakllandi. Bunda, qurilish, umumiy ovqatlanish va moliya sohalarida yuqori o'sish qayd etildi.

Qo'shimcha ishchi kuchiga talab bo'yicha kutilmalar ham o'tgan yilning mos davriga nisbatan ko'paydi. Buyurtmalar hajmi oshishi kutilayotgan tarmoqlarda qo'shimcha ishchi kuchiga talabning ham yuqori bo'lishi respondentlar tomonidan bildirildi. Bu holat tadbirkorlik subyektlarida faoliyatni kengaytirish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash ehtiyoji saqlanib qolganligini ko'rsatdi.


Kredit to'lovlari bo'yicha kutilmalar ham biroz oshganligi qayd etildi. Bu biznes subyektlari tomonidan moliyaviy majburiyatlar va qo'shimcha moliyalashtirishga ehtiyoj mavjudligini anglatuvchi kayfiyat kuchayganligini bildirishi mumkin.

Kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch sezilarli darajada oshdi. So'rovnoma qatnashgan tadbirkorlarning 81 foizi istiqboldagi sharoitlar ijobiy tomonga o'zgarishiga ishonch bildirdi.

34-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



35-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



36-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda

